


**BUXORO VILOYATI
TASHQI SAVDO AYLANMASI***2026- yil yanvar-iyun oylari uchun dastlabki ma'lumot*

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2026- yil yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 816,3 mln. AQSH dollariga yetdi va 2025- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 46,2 mln. AQSH dollariga yoki 6,0 % ga ko'paydi.

Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)

TSAda eksport hajmi 222,7 mln. AQSH dollariga (2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 34,5 % ga ko'paydi) va import hajmi 593,6 mln. AQSH dollariga (1,8 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 370,9 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**Buxoro viloyatining yirik hamkor davlatlar
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (mln. AQSH dollari)**

Davlatlar	2024-y.	2025-y.	2026-y.
Rossiya	170,5	304,5	250,2
XXR	226,7	156,8	124,1
Turkmaniston	50,8	68,8	83,6
Afgoniston	23,2	49,0	72,7
BAA	1,2	13,3	61,9
Eron	32,1	30,0	54,0
Qozog'iston	28,6	31,3	48,2
Tojikiston	5,4	11,1	19,9
Turkiya	32,9	22,6	15,2
Qirgiz Respublikasi	8,1	9,7	14,5
Germaniya	19,3	11,3	10,2
AQSH	6,4	4,5	8,0
Gonkong	0,4	0,5	6,2
Italiya	0,9	1,6	4,9
Hindiston	6,2	11,7	4,1
Polsha	3,5	3,8	4,0
Belarus	4,9	3,9	3,1
Koreya Respublikasi	3,5	2,3	2,4
Singapur	0,02	0,1	2,3
Shveytsariya	1,9	0,2	2,2

Buxoro viloyati 103 ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (30,7 %), XXRda (15,2 %), Turkmanistonda (10,2 %), Afg'onistonda (8,9 %) va BAAda (7,6 %) qayd etilgan.


II. BUXORO VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI

Tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2025- y.	2026- y.	2025- y.	2026- y.	2025- y.	2026- y.
Jami eksport	165,6	222,7	119,9	134,5	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	20,5	10,6	2,6 m.	51,4	12,4	4,7
Ichimliklar va tamaki	1,1	0,7	171,0	60,5	0,7	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,2	5,4	51,2	103,1	3,1	2,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	45,0	64,6	2,1 m.	143,6	27,2	29,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	4,6	3,8	46,2 m.	0,1	2,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	2,5	14,8	121,9	6,0 m.	1,5	6,7
Sanoat tovarlari	57,4	54,3	77,1	94,5	34,7	24,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	11,2	24,2	35,8 m.	2,2 m.	6,7	10,9
Turli xil tayyor buyumlar	10,4	25,5	140,1	2,5 m.	6,2	11,4
Xizmatlar	12,2	18,0	113,2	147,3	7,4	8,1

Mavzugadoirhavola: [Eksporttarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 91,9 % ni tashkil etib, asosiy ulush sanoat tovarlari (24,4 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (29,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (4,7 %) va mashinalar va transport asbob-uskunolari (10,9 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Buxoro viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari (mln.AQSHdollari)



Mavzugadoirhavola: [Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

2026-yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Afg'oniston (32,4 %), Rossiya (30,1 %), Qozog'iston (8,4 %), Tojikiston (7,6 %), Qirg'iz Respublikasi (3,2 %), AQSH (3,0 %), Turkmaniston (2,3 %), Germaniya (1,9 %), Turkiya (1,6 %), Polsha (1,2 %) va XXR (1,1 %) kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 92,8 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti tarkibi (mln. AQSH doll.)



Mavzuga doir havola : [Xizmatlar eksporti \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar eksporti hajmi 18,0 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 8,1 % ini tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 47,3 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (15,0%), transport (21,7 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (16,7 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (46,6 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

III. BUXORO VILOYATINING IMPORTI

2026-yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi 593,6 mln. AQSH dollariga yetdi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 1,8 % ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush, kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (23,7 %), mineral yoqilg'i, yog'lash oylari va shunga o'xshash materiallar (30,9 %), Mashinalar va transport asbob-uskunolari (19,9 %) hamda sanoat tovarlari (11,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Buxoro viloyatining importi tarkibi


3.1- jadval

XSST tarkibi	Mln.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.
Jami import	604,5	593,6	118,1	98,2	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,8	16,9	137,1	142,6	2,0	2,8
Ichimliklar va tamaki	1,5	0,9	7,8 m.	57,1	0,2	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	17,0	32,9	2,1 m.	193,6	2,8	5,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	258,8	183,4	155,6	70,9	42,8	30,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	0,5	28,1	2,3 m.	-	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	61,7	140,4	194,2	2,3 m.	10,2	23,7
Sanoat tovarlari	70,1	70,3	2,7 m.	100,3	11,6	11,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	149,8	117,8	95,6	78,7	24,8	19,9
Turli xil tayyor buyumlar	33,3	30,4	29,4	91,3	5,6	5,2
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	0,3	0,1	112,3	39,9	-	-

Mavzugadoirhavola:[Import tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,9 mln. AQSH dollariga kamaydi va 593,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,1 mln. AQSH dollariga yetdi.

Buxoro viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari (mln. AQSH dollari)



2026-yil yanvar-iyun oylarida Buxoro viloyati 69 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar Rossiya (30,9 %), XXR (20,5 %), Turkmaniston (13,2 %), BAA (10,4 %), Eron (8,8 %), Qozog'iston (5,0 %), Turkiya (2,0 %), Qirg'iz Respublikasi (1,3 %), Gonkong (1,0 %) va Germaniya (1,0 %) jami importning 94,1 % ni tashkil etdi.

Mavzuga doir havola:[Xizmatlar importi \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar importi esa tarkibining asosiy ulushi tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (100,0 %) ga tegishli bo'ldi.

IV. METAMA'LUMOTLAR

*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezidentdan norezidentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tiyulgan va bojxona deklaratsiyasida hisobga oliniyulgan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)
[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)
[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)
[Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)
[Eksport hajmi \(hudular kesimida, yillik\)](#)
[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)
[Import hajmi \(yillik\)](#)
[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)
[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo statistikasi bo'limi	Boshqarma boshlig'i: U.Djumanazarov Tel: +998655058000 (8000)	Ijrochi: Z. Saidova Tel: +998655058000 (8040) e-pochta: : info@buxstat.uz buxstat@exat.uz	Manzil: 200100, Buxoro sh., Gazli shoh ko'chasi, 32
--	--	---	---